

## QADIMGI TURKLAR HARBIY SAN'ATI: TURK XOQONLIGI MISOLIDA.

Jabborov Fazliddin Maxsidinovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV*

*Samarqand akademik litseyi*

*Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada qadimgi turkiy qabilalar, xususan, ular tomonidan asos solingan Turk xoqonligining harbiy hayoti, qo'shin tuzilishi, jang olib borish taktikasi haqida qisqacha ma'lumotlar bayon etilgan. Maqola tanlangan mavzuga oid to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan.*

**Kalit so'zlar:** *Xoqonlik, "qon solig'i", o'nlik, yuzlik, minglik, tuman (o'n minglik) birikmalar, dudama, palash, "al-karr va-l-farr", "turk taktikasi".*

Milodning birinchi ming yilligida Qozog'iston va Markaziy Osiyo hududlariga turklarning ommaviy kelib joylashish jarayoni ro'y beradi. Shimoliy Mo'g'ulistondan to Amudaryoning quyi oqimiga qadar bo'lgan ulkan hududlarda turklar istiqomat qiladilar.

Usunlar, qang'lilar kabi mahalliy aholi bilan singishib ketgan turklar VI asr o'rtalarida o'z davlatlariga asos soladi.

Turk xoqonlari Sosoniylar Eroni, Eftaliylar podsholigi bilan urushlar olib borgan va o'z hukmronligini Buyuk ipak yo'lining ancha katta qismida o'rnatishadi. Shuningdek, Vizantiya bilan diplomatik aloqalar olib borilgan, arab istilochilariga qarshi kurashishgan.

Qadimgi turklarning mohirligi haqida arab yilnomasida shunday yozilgan: "Arab bitta o'qni yoyga qo'yguncha turk 10 ta o'q uzadi".

Qadimgi turklarda harbiy ish yuqori darajada taraqqiy etgan. Turk xoqonligida harbiy majburiyat ("qon solig'i") eng muhim va umumiy majburiyatlardan birin hisoblangan. Erkaklarning majburiyati oilani, mulkni himoya qilish, jang olib borish edi. O'z farzandlariga uch yoshidan boshlab kamondan o'q uzishni o'rgatishgan.

Turk ayollarining ko'pchiligi ustamon chavandoz va mergan bo'lishgan.

Turklar qo'shin bo'linishining osiyocha tizimidan foydalanishgan. Bunday bo'linish esa hududiy-qabilaviy prinsipga asoslangan. Xoqonning buyrug'i bilan har bir qabilaga yashash va xo'jalik yuritish uchun aniq hudud belgilab berilgan. Har bir yurtning qabilasi o'nlik, yuzlik, minglik bo'linmalardan iborat bo'lgan. Qo'shinning o'nlik, yuzlik, minglik, o'n minglik (tuman) bo'linmalarga bo'linishi xoqonga tezlik bilan qo'shinni jamlash va qo'mondonlik birliklarini tuzish imkonini bergan. Yig'ilgan qo'shin oziq-ovqat, qurol-yaroq bilan ta'minlangan.

Urush bo'lmagan paytlarda qo'shin askarlarining muayyan qismiga o'z uylariga ketishga ruxsat berilgan, qo'shinning ma'lum bir qismi esa tarqatilmagan hamda keyingi yurishlar, janglar uchun harbiy tayyorgarlikda turgan.

Turklar hayotida harbiy aristokratiyaning o'rnini katta bo'lib, agar hukmdor qo'shinining qo'llab-quvvatlashiga erisha olmasa, uning taxtda turishi qiyin edi. Biroq, xoqonning kuchli avtoriteti turk qo'shinida qat'iy intizomni ta'minlab turgan.

Qo'mondonning maxsus ko'rsatmasi bo'lmasa, askarlarning jang maydonini tark etishi qat'iy taqiqlangan. Qo'shin nishoni (bayrog'i)ning yiqitilishi qo'mondonning halokati yoki mag'lubiyatidan nishona bergan.

Yuqori qo'mondonlik tarkibi xoqon tomonidan tuzilgan. Bunda individual sifatlar – jasurlik, jismoniy baqquvatlilik, abjirlik, boshqaruvchilik kabi sifatlarga asosiy e'tibor qaratilgan.

Turk armiyasi otliq va piyoda qo'shinlardan iborat bo'lgan. Otliq qo'shin og'ir va yengil kavaleriyalardan tuzilgan bo'lib, qurollanishiga ko'ra kamonchilar va qilichbardorlardan iborat bo'lgan. Urushlarda otliq qo'shinining kamonchilar qismi birinchi bo'lib jangga kirgan. Og'ir qurollangan otliqlar qismi esa ko'proq yaqin masofada, yakkama-yakka janglarda ishtirok etgan.

Bu davrda chopuvchi qurolning yangi turi – qilich va dudama, uzun va og'ir qilich – palash paydo bo'lgan. Har bir otliq jangchi o'zi bilan kamida ikki yoki uchta otini olib yurgan. Bu horigan otlarni charchamagan otlarga almashtirish imkoniyatini bergan. Ot ham zirhli abzal bilan himoyalangan. Turklar birinchi bo'lib otdan jang vositasi sifatida foydalanganlar. Egarjabduq, uzangi va tizgin kabi anjomlarni kashf etganlar.

Turk harbiy san'atida mahfiy razvedka muhim ahamiyatga ega bo'lgan va u uch turda bo'lgan: 1. Strategik razvedka 2. Taktik razvedka 3. Harbiy (qo'shin) razvedkasi.

Strategik razvedka raqib davlat va uning ittifoqchilarining harbiy-iqtisodiy ahvolini aniqlashga, shuningdek raqib tomonni kuchsizlantirish maqsadida josuslarni kiritish vazifalarini bajargan.

Taktik razvedka raqib tomonning joylashuvi, qurollanishi, tashkilotlari, armiyasining taktika va texnikasini o'rganishga qaratilgan.

Harbiy razvedka esa raqib qo'shinining harakati, yo'nalishi haqida tezkor axborot to'plashga mo'ljallangan.

Turklar tomonidan urushlarda qo'llaniladigan taktikani arablar “al-karr va-l-farr”, ya'ni “hujum va chekinish” deb nomlagan bo'lib, bunda turk qo'shini dushmanga shiddatli hujum uyushtirish bilan birga vaziyatdan kelib chiqqan holda to'satdan chekinish yo'lini ham tutgan. Ko'pincha bunday chekinish dushmanni chalg'itish, uni shu yo'l bilan qurshovga olish uchun amalga oshirilgan. Musulmon Sharqida bu taktika “Turk taktikasi” deb ataladi.

Jahon harbiy san'ati taraqqiyotida turkiy xalqlar o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Arab adibi Johiz turkiy xalqlarning xislatlari haqida yozilgan «Manoqib al-atrok»

asarida: «Sosoniy-forslar barcha xalqlardan davlatni boshqarish sohasida, xitoyliklar – hunarmandchilikda, yunonlar – ilm-fanda, turklar – harbiy ishda ustundirlar», – deb yozgani bejiz emas.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, Osiyo qit'asining talaygina qismini egallagan, bugungi kunda ham ko'plab xalq, elat, etnik birliklarning kelib chiqishida negiz bo'lgan Turk xoqonligi, garchi kuchli markazlashgan davlat apparatini to'laqonli tuzishmagan bo'lsada o'zining ancha mukammal harbiy tizimi, taktika va strategiyasiga ega bo'lgan. Turk xoqonligiga xos ushbu



harbiy tizim keyingi davrlarda ham nafaqat turkiy xalqlar va davlatlar, balki dunyoning boshqa mintaq va xalqlarida ham harbiy sohaning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qilgan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob), T. "Sharq". 2010.
2. Безертинов Р. Боевое искусство тюрков // Идель. №4. – 1995. – С.25-30.
3. Гумилёв Л. Н. Древние тюрки, Л., Наука, 1967.
4. Рахманалиев Р. Империя тюрков. История Великой цивилизации. – М., С.20.